



XALQ DEPUTATLARI QO'QON SHAHAR KENGASHI

Q A R O R I

2022 йил «29» апрель

VI-47-37-11-166-K/22

Қўқон шаҳар ҳокимлиги

Qo'qon shahrida xududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha 2022 yil 1-choragida sektorlar va hududdagi tashkilotlar rahbarlari faoliyati, murojaatlar bilan ishlashning holati to'g'risida

2022 yilning 1-choragi mobaynida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarida ko'tarilgan masalalar yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qo'qon shahridagi Xalq qabulxonasi, sektorlar va hududdagi tashkilotlar rahbarlarining olib borgan ish-faoliyatlari umumlashtirildi.

Aniqlanishicha, Xalq qabulxonasiga shu davrda jismoniy va yuridik shaxslardan 620 ta (2021 yilda 935 ta) murojaatlarni o'z ichiga olgan- 746 ta (2021 yilda 1067 ta) masalalar kelib tushgan. Shundan: hududiy tashkilotlarga yuborilgani- 666 tani, yuqori tashkilotlarga yuborilganlar 83 tani, Xalq qabulxonasida qoldirilganlari 2 tani tashkil etgan.

Qanoatlantirgan murojaatlar soni 577 tani yoki 96,8%ni tashkil etib, shundan: ijobiy yechimini topgani 223 tani yoki 37,4 %ni, huquqiy maslahat va ma'lumot berish orqali hal qilingani 354 tani tashkil etgan. 70 ta murojaat hozirda ko'rib chiqish jarayonida.

Kelib tushgan murojaatlarni sohalar kesimida tahlil qilinganida, ulardan eng ko'pini- ish bilan ta'minlash 58 ta, bir martalik moddiy yordam olish- 151 ta, uy-joy bilan ta'minlash-123 ta, gaz, elektr, suv ta'minoti- 27 ta, kommunal to'lovlar- 20 ta, sog'liqni saqlash- 30 ta, tadbirkorlik bilan shug'ullanish masalasida- 32 hamda kredit ajratish masalalarida 21 ta murojaatlar tashkil qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 1 fevraldagi “Fuqarolarning o‘zini- o‘zi boshqarish organlari majmualarini tashkil etish bo‘yicha 2021-2022 yillarga mo‘ljallangan manzilli Dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 46-sonli qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida Qo‘qon shahrida davlat-xususiy sheriklik asosida fuqarolarning o‘zini- o‘zi boshqarish organlari majmualarini tashkil etish bo‘yicha 2021-2022 yillarga mo‘ljallangan “Manzilli dastur”ga asosan 2021 yilda 16 ta, 2022 yilda 8 ta MFYlarda qurilish ishlarini olib borish belgilangan.

Dasturga asosan, Urganjibog‘, Galabaqqollik, G‘oziyog‘lik, hamda Rayhon mahalla binolari foydalanishga topshirilgan bo‘lsa, Vaqf chorsu, Do‘stlik mahalla binolarida qurilish ishlari davom etmoqda. Oq oltin (Open byudjetda yutib olgan), Nurafshon, Navro‘z, Kalvak guzari mahalla binolarida qurilish ishlari vaqtincha to‘xtab qolgan.

Charxini ko‘prigi MFYda elektr ta‘minotini yaxshilash maqsadida 79 ta tayanch ustunlar hamda TP-111 dan chiquvchi 0,4 kV.li havo uzatmalarni rekonstruksiya qilish uchun 1,1 km tarmoq tortilib, 220 mln.so‘m mablag‘ sarflash rejalashtirilgan edi. Amalda, 100 % ishlar bajarilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 18 martdagi “2022–2026 yillarda “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlarini amalga oshirishchora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 172-sonli qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida Davronbek va Islomobod MFYlari kiritilgan bo‘lib, ularda amalga oshiriladigan ishlar yuzasidan manzilli dastur ishlab chiqilgan. Unga asosan, shahar bo‘yicha jami 6 680 mln.so‘m shundan, 1 664 mln.so‘m respublika byudjeti mablag‘lari, 2 784 mln.so‘m mahalliy byudjet mablag‘lari hisobidan, 949 mln.so‘m tarmoq korxonolari mablag‘lari, 580 mln.so‘m tadbirkorlar va aholi mablag‘lari, 428 mln.so‘m homiylik va xayriya mablag‘lari va tijorat banklari kreditlari hisobidan 275 mln.so‘m ajratilishi rejalashtirilgan.

Ijtimoiy soha ob‘yektlarini yaxshilash bo‘yicha Davronbek MFYda 45-DMTTni ta‘mirlash uchun 350 mln.so‘m, Islomobod MFYda 9-maktabni ta‘mirlash uchun 2 040 mln.so‘m mahalliy byudjeti xisobidan ajratilishi rejalashtirilgan.

Uy-joy fondini yaxshilash borasida jami 175 ta (Davronbek MFYda 112 ta, Islomobod MFYda 63) yakka tartibdagi uy-joylarni ta‘mirlash uchun 406 mln.so‘m homiylik va xayriya mablag‘lari xisobidan ajratilishi rejalashtirilgan.

Kiritilgan axborot, unda kutarilgan masalalar yuzasidan bildirilgan fikr-muloxazalarga ko'ra, xalq deputatlari Qo'qon shahar Kengashi

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qo'qon shahridagi Xalq qabulxonasi mudiri X.Sobirovning 2022 yil 1-choragida xududlarni kompleks ijtimoiy-iktisodiy rivojlantirish bo'yicha sektorlar, mutasaddi idora va tashkilot raxbarlari faoliyati hamda murojaatlar bilan ishlashning xolati yuzasidan axboroti ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Shaxar sektorlari raxbarlari va hokim o'rinbosarlariga:

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 2 apreldagi "Aholi muammolari bilan ishlashda mahalla institutining mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 5700-sonli farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 1 martdagi "Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi 147-sonli qarorlarida belgilab berilgan «mahalla — sektor — Xalq qabulxonasi — mahalla» prinsipi asosida hamkorlik tizimini jonlantirish;

- shahar Kengashi sessiyalarida hududiy deputatlar, MFY raislari, hokim yordamchilari va yoshlar yetakchilarining murojaatlarni hal etish borasidagi faoliyatlari yuzasidan axborotlarini muntazam eshitib borish;

- sektorlar hududidagi ijtimoiy ob'ektlar, MFY, ko'p qavatli uylarda aholini gaz, elektr ta'minoti, suv, gaz balloni bilan uzluksiz ta'minlash yuzasidan doimiy choralar ko'rib borish;

- tabiiy gaz tarmog'i ta'minotini yaxshilash maqsadida Noib ko'prigi, Charxini ko'prigi, Yangi chorsu, Navbahor, Saodat, A.Navoiy MFYlarida gaz tarmog'i tortish ishlarini yakunlash choralari ko'rish;

- Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 1 fevraldagi "Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari majmualarini tashkil etish bo'yicha 2021-2022 yillarga mo'ljallangan manzilli Dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi 46-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Qo'qon shahrida davlat-xususiy sheriklik asosida 2022 yilda quriladigan 8 ta mahalla binolariga zudlik bilan aniqlik kiritish;

- sektorlar hududida "Temir daftar" ro'yxatida mavjud 508 nafar oilalar, "Ayollar daftari"ga 3-bosqichida kiritilgan 5639 nafar xotin-qizlar hamda "Yoshlar daftari"dagimavjud 454 nafar yoshlarni bandligini ta'minlash bo'yicha muntazam

tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- Qo‘qon shahrida “Obod mahalla” dasturi doirasida ichki yo‘llarni ta‘mirlash hamda amalga oshiriladigan ishlarni moliyalashtirish manbalari Respublika byudjetidan ajratilishi yuzasidan chora-tadbirlarni belgilash;

- sektor rahbarlari tomonidan o‘z hududlarida ortgan murojaatlarning tahlilini qilgan holda, ularni hal etish choralarini ko‘rish. Bunda kelib tushayotgan murojaatlarni doimiy tahlil qilish va ijobiy yechimi samaradorligini oshirish kabi vazifalar yuklatilsin.

3. Sektor rahbarlari o‘tkazilgan ommaviy sayyor kabul natijalari buyicha tegishli mutasaddi idora va tashkilotlarga muamolarni xal etish uchun yuborilgan topshiriklarni o‘z vaktida ijrosini ta‘minlash yuzasidan ta‘sirchan nazoratni amalga oshirsinlar.

4. Xalq deputatlari shahar Kengashi kotibiyati mudiri A.Ziyavutdinovga shahar kengashi deputatlari tomonidan sektor rahbarlarining “Obod mahalla” va og‘ir hududlarni 2022 yilda ijtimoiy- iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha tasdiqlangan “Yo‘l xarita”larini ijrosini doimiy o‘rganib, aniqlangan kamchiliklarni yakuniga yetkazishni nazoratga olishlarini muvofiqlashtirib borish va kengash raisiga axborot berib borilishini tashkil etish vazifasi yuklatilsin.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari shahar Kengashining doimiy komissiyalari zimmasiga yuklansin

Kengash raisi



M.Usmanov